

ATB «Kapitalbank» Kengashi  
tomonidan

«TASDIQLANGAN»

2019 yil «25» dekabr

(54-sonli bayonnoma)

Bank Kengashi Raisi

\_\_\_\_\_ M. A. Abdusamadov

**ATB «KAPITALBANK»DA  
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH,  
TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH YOKI OMMAVIY QIRG'IN QUOLLARINI  
TARQATISHNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI TA'SIR ETISH  
SIYOSATI  
(yangi tahrir)**

Toshkent - 2019 y.

## SO'ZBOSHI

Butun taraqqiy etgan jahonda olib borilayotgan jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sir etish siyosanining muhimligi va alohida ahamiyatini, shu jumladan butun dunyo hamjamiyati uchun terroristik hamda ular bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlardan tarqaluvchi tahdidni hisobga olgan holda, shuningdek jinoiy pullarni yuvish xavfini oldini olish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qaratilgan operatsiyalarni aniqlash va oldini olish, bankni jinoiy faoliyatga qasddan yoki qasdsiz aralashishiga yo'l qo'ymaslik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish to'g'risidagi qonunchilik talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash maqsadida ATB «Kapitalbank» (keyingi o'rinlarda – bank)da shubhali va gumonli operatsiyalarni o'z vaqtida aniqlash yuzasidan chora-tadbirlar majmuyi ishlab chiqildi va amalga kiritildi.

Bank tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni yuvish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan operatsiyalar va bitimlarni oldini olish, shuningdek terroristik faoliyatni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga yo'l qo'yimfslik yuzasidan barcha mumkin bo'lgan choralar ko'rilmogda.

Bank «O'z mijozingni bil» tamoyiliga asosan o'zining mijozlari bazasini tanlash va shakllantirishga juda ehtiyokorlik bilan yondashadi, o'z mijozlari, ularning qiziqishlari va faoliyat sohaslarini diqqat bilan o'rganadi hamda shaffoflik va mijozlar biznesi va operatsiyalarini tushunishga asoslangan o'zaro munosabatlarni o'rnatishga intiladi.

## 1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. ATB «Kapitalbank»da jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terroristik faoliyatni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish yuzasidan mazkur Siyosat (keyingi o'rinlarda – Siyosat) O'zbekiston Respublikasining « Banklar va bank faoliyati to'g'risida», « Bank siri to'g'risida», « Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terroristik faoliyatni moliyalashtirish qarshi ta'sir etish to'g'risida»gi qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosqaruvining 343-B sonli hamda Bosh Prokuratura huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamentining 14-sonli 2017 yil 17.04dagi qo'shma qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23.05.2017 y.da 2886-son bilan ro'yxatdan o'tgan «Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terroristik faoliyatni moliyalashtirish qarshi ta'sir etish yuzasidan ichki tartib qoidalari», O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 02.07.2018 y.da 3030-son bilan ro'yxatdan o'tgan «Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizom, shuningdek pullarni yuvishga qarshi kurashish yuzasidan moliyaviy choralar ishlab chiqish bo'yicha Guruh (hukumatlararo komissiya) (FATF)ning tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Siyosatda ko'rsatib o'tilgan amaliyot va qoidalariga O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi hamda xalqaro normalar va standartlardagi o'zgarishlarga muvofiq o'zgarish va qo'shimchalar kiritiladi.

3. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tishunchalar ishlatiladi:

**FATF** – Jinoiy kapitallarni yuvish bilan kurashish bo'yicha hukumatlararo komissiya bo'lib, u jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish sohasida jahon standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, shuningdek jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish milliy standartlarining usbu standartlarga muvofiqliligini baholashni amalga oshiradi.

**jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish** – mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk)ni o'tkazish, aylantirish yoki almashtirish orqali uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, shu bilan bir qatorda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklar jinoiy faoliyat

natijasida olingan taqdirda ularning asl xususiyatlari, manbayi, joylashgan joyi, tasarruf etish, ko'chirish usullari, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkga nisbatan haqiqiy huquqlarni yoki uning tegishlilikini yashirish yoki bu haqda ma'lumot berkitishdan iborat bo'lgan jinoiy jazoga tortiladigan ijtimoiy xavfli qilmishdir.

**terrorizmni moliyalashtirish**-terroristik tashkilotni kun ko'rishini, faoliyatini moliyalashtirishni, terroristik faoliyatda ishtirok etish va terroristik aktlarni tayyorlash va sodir etish uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish yoki uning hududida harakatlanishini ta'minlash, terroristik faoliyatda ko'maklashuvchi yoki ishtirok etuvchi shaxslarga har qanday mablag', resurs yoki boshqa hizmatlarni bevosita yoki bilvosita taqdim etish yoki yig'ishdan iborat jinoiy jazoga tortiladigan ijtimoiy xavfli qilmishdir.

**ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish** - yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollarini hamda ularni yaratishda ishlatiladigan hom ashyo va uskunalarni loyihalash, islab chiqish sotib olish, saqlash, sotish, ishlatish maqsadida har qanday mablag, resurs yoki boshqa hizmatlarni bevosita yoki bilvosita taqdim etish yoki yig'ishdir.

**ro'yxat** – terrorizm, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish bilan kurashuvchi davlat organlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek chet el davlatlarining vakolatli organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida maxsus vakolatli organ tomonidan tuziladigan terroristik faoliyatda yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishda ishtirok etuvchi yoki ishtirok etishda gumon etilayotgan shaxslarning ro'yxati.

**xatar**- jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirish olingan daromadlarni legallashtirish maqsadida mijozlar tomonidan operatsiyalarni amalga oshirishdagi xatar.

**bank ichki nazorat departamenti** - jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirish olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sir etish maqsadida ichki nazoratni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan bankning tuzilmaviy bo'linmasi

**mas'ul xodim** - jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sir etish maqsadida bank tomonidan ichki nazorat qoidalariga rioya qilishi hamda maxsus vakolatli davlat organiga ma'lumotlar taqdim etish uchun mas'ul bo'lgan bank xodimi

**mijoz** –bank bilan ish munosabatlarini yo'lga qo'yish istagida bo'lgan yoki bank xizmat ko'rsatayotgan yoki o'z nomidan o'z manfaalari yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zda tutib bank bilan bir marotabalik bitimni amalga oshirayotgan jismoniy/yuridik shaxs/ yakka tadbirkor

**operasiya istirokchilari** – mijozlar, ularning vakillari, shuningdek mijozning operatsiyada istirok etuvchi sheriklari/kontragentlari

**uchinchi taraf** - pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshirayotgan tashkilotlar

**benefisiar mulkdor** – yakunda mulk huquqiga ega bo'lgan yoki mijozni haqiqiy nazorat qiladigan, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalar uning manfaatlarida amalga oshirayotgan shaxs;

**mijozning benefisiar mulkdorini identifikatsiyalash** – bank tomonidan qonunchilikda belgilangan ta'sis hujjatlari (ustav va (yoki) ta'sis shartnomasi, nizom) asosida mulkchilik tuzilishini va boshqarilishini o'rganish orqali mulkdorning yuridik shaxsini aniqlash;

**rasmiy mansabdor shaxslar** – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat yuzasidan tayinlanadigan yoki saylanadigan, davlat organlarida tashkiliy-tasarruf etish vazifalarini bajaradigan va huquqiy jihatdan ahamiyatli xarakatlarni sodir etish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek xalqaro tashkilotlar yoki chet el davlatining qonunchilik, ijroi, ma'muriy yoki sud organida ko'rsatilgan vazifalarini bajaradigan shaxslar;

**yaqin qarindoshlar**- ota-onalari, qondosh va o'gay aka-uka, opa-singillari, turmush o'rtog'lari, farzandlar, shu jumladan asrab olingan o'g'il-qizlar, bovolalar, buvilar, nevaralar, shuningdek turmush o'rtog'larining ota-onalari, qondosh va o'gay aka-uka, opa-singillari;

**maxsus vakolatli davlat organi (keyingi o'rinlarda – MVDO)** – O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti;

filiyal- ATB «Kapitalbank»ning filiallari, bank xizmatlari Markazlari, AB, MAB.

## **2-BOB. ASOSIY TAMOILLAR**

4. Bankning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni yuvish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bilan bogliq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirishga aralashishini oldini olish maqsadida bank quyidagi asosiy tamoillarga amal qiladi:

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish maqsadida ichki nazorat tizimini yaratish va takomillashtirishda mazkur siyosatda bayon etilgan asosiy yondashuvlarga rioya qilish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish maqsadida milliy qonunchilik va mazkur siyosat asosida o'zining ichki nazorat qoidalarini ishlab chiqish;

barcha bank operatsiyalarini amalga oshirishda, shu jumladan valyuta operatsiyalarida, bank xizmatlarini mijozlarga yetkazish, vakillik munosabatlarini o'rnatish, shuningdek yangi texnologiyalarni joriy etish va b.da bankning jinoiy daromadlarni yuvish hamda terrorizmni moliyalashtirish sxemalariga aralashishi bilan bog'liq xatarlarni aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish.

## **3-BOB. ASOSIY VAZIFALAR**

5. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) bankning barcha filiallari va bo'linmalarida MVDOga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlash bo'yicha samarali ichki nazorat tizimini tashkil etish;

b) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qaratilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni samarali aniqlash va ularni oldini olish ;

v) bankning jinoiy faoliyatga qasddan yoki qasdsiz aralashishini, uning ustav jamg'armasi (kapitali)ga jinoiy kapitalning kirishi, shuningdek bank boshqaruviga jinoiy shaxslarning kirishiga yo'l qo'ymaslik;

g) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish to'g'risidagi qonunchilik talablariga so'zsiz rioya qilishni ta'minlash;

d) O'zbekiston Respublikasi boshqa banklari va xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishda ularning ichki nazorat tizimini o'rganish.

## **4-BOB. BANKNING MAS'UL XODIMI**

6. Bankning turli hil (hisob-kitob, g'azna, depozut, valyuta, kredit va sh. k.) operatsiyalarni amalga oshirishini hisobga olib, usbu jarayonlarga bevosita jalb etilgan tuzilmaviy bo'linmalar raxbarlari va filiallar raxbariyati mazkur siyosatni amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi, umumiy muvofiqlashtirish va nazoratni esa bank Boshqaruvi raisining buyrug'i bilan tayinlanadigan mas'ul xodim (filiallarga biriktirilgan xodimlarning faoliyatiga rahbarlik qiluvchi ichki nazorat departamenti direktori) amalga oshiradi.

7. Bankning mas'ul xodimi Ichki nazorat departamenti direktori lavozimini egallab, qarorlarni qabul qilish va o'z lavozim majburiyatlarini bajarishda mustaqildir.

8. Mas'ul xodim etarli darajada obro'li, muomalali, rostgo'y va adolatli bo'lishi lozim.

9. Mas'ul xodim majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

bankning boshqa xodimlarini jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni yuvishga yo'l qo'ymaslik siyosati to'g'risida xabardor bo'lishini ta'minlash;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish qoidalarida nazarda tutilgan amaliyotlarini bajarilishi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish qoidalarida nazarda tutilgan tranzaksiyalarga aloqador yozuvlarni yuritish, tegishli ma'lumot va hujjatlarni arxivasiyalash va saqlash;

gumonli operasiyalar aniqlangan hollarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish ichki qoidalarida ko'zda tutilgan me'yorlar asosida ta'sir etuvchi choralarni ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish bo'yicha qonunchilik ijrosiga rioya etilishi yuzasidan vakolatli organlar bilan aloqalar o'rnatish.

### **5-BOB.IDENTIFIKASIYALASH AMALIYOTLARI**

10. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni yuvishni samarali oldini olishning asosiy usuli mijozni tegishli tartibda tekshirish hisoblanadi. Tegishli tartibda tekshirish bank mijozlari taqdim etadigan ma'lumot va hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

11. Bank quyidagi hollarda mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan mustaqil ravishda choralar ko'radi:

a) xo'jalik va fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o'rnatishda, shu jumladan:

mijoz bank hisobvarag'i (omonat) ochish uchun ariza bilan murojaat etganda, avval taqdim etilgan tekshiruv sanasiga haqiqiy hisoblangan va verifikasiyalangan hujjatlar asosida mijozlarni tegishli tartibda tekshirish imkoni bo'lgan hollar bundan mustasno;

jismoniy shaxs bank kartasini olish uchun ariza bilan murojaat etganda;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni harid qilish uchun ariza bilan murojaat etganda;

yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar bank ustav kapitalining bir foiziga teng yoki undan yuqori summadagi bank aksiyalariga egalik qilganda;

jismoniy shaxs kredit olish va (yoki) bank depozit qutichasida qimmatliklarni saqlash xizmatini ko'rsatish uchun murojaat etganda;

b) quyidagi hollarda bir marotabalik operasiyalarni amalga oshirishda:

jismoniy shaxslar tomonidan bazaviy hisob-kitob miqdorining 500 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi naqd chet el valyutasi sotilganda;

jismoniy shaxslar tomonidan bazaviy hisob-kitob miqdorining 500 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi naqd chet el valyutasi maydalangan, almashtirilgan va (yoki) boshqa chet el valyutasiga ayirbosh (konversiya) qilinganida;

mijozlardan inkassoga va (yoki) ekspertiza uchun bazaviy hisob-kitob miqdorining 500 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi naqd chet el valyutasi olinganda;

jismoniy shaxslar tomonidan bank kartasidan foydalangan holda tijorat bankida joylashgan terminallar orqali bazaviy hisob-kitob miqdorining 300 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi operasiyalar (naqd mablag'larni yechib olish, tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lash) amalga oshirilganida (kommunal aloqa, xizmatlar uchun haq to'lash, byudjet, byudjetdan tashqari va boshqa majburiy to'lovlar bundan mustasno);

mijozlar tomonidan bank kassasidan boshqa banklar chiqargan bank kartasi orqali bazaviy hisob-kitob miqdorining 100 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi naqd chet el valyutasi olinganda;

jismoniy shaxslar tomonidan bazaviy hisob-kitob miqdorining 500 barobariga teng yoki undan yuqori summadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatli metaldan yasalgan tangalari sotib olinganda;

jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasi sotib olinganda (rezudent jismoniy shaxs tomonidan 100 AQSH dollari ekvivalentidan yuqori summadagi naqd chet el valyutasi sotib olinganda);

bank hisobvarag'ini jchmasdan yoki undan foydalanmasdan pul o'tkazmalsini amalga oshirilganida yoki qabul qilganida (kommunal aloqa, xizmatlar uchun haq to'lash, byudjet, byudjetdan tashqari va boshqa majburiy to'lovlar bundan mustasno);

v) gumonli operasialarni amalga oshirishda;

g) mijoz tog'risida avval olingan ma'lumotlar haqiqiyliги yoki etariligi haqida shubha uyg'onganda;

12. Bank tomonidan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan ko'radigan choralar o'z ichiga quyidagilarni olishi shart:

a) tegishli hujjatlar asosida mijoz va u nomidan ish ko'rayotgan shaxslarning shaxsini va vakolatlarini tekshirish;

b) mijozning benefisiar mulkdorini identifikasiyalash;

ish munosabatlari va rejalastirilgan operasialar maqsadi va xususiyatlarini o'rganish;

v) shu mijoz va uning faoliyatiga muvofiqligini tekshirish maqsadida mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan ish munosabatlari va operasialarni doimiy asosda o'rganish.

Yuqorida ko'rsatilgan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish choralarini amalga oshirishdan tashqari bank mijoz yoki mijozning benefisiar mulkdori sifatida chiqayotgan rasmiy mansabdor shaxslarga nisbatan quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

rasmiy mansabdor shaxs maqomi haqida ma'lumotlarni tekshirish va operasiya bo'yicha pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk manbasini aniqlash uchun oqil choralarni ko'rish;

faqatgina bank Boshqaruvi raisi yoki uning vakolatli o'rinbosarining ruxsati bilan rasmiy mansabdor shaxslar bilan ish munosabatlarini o'rnatish;

ish munosabatlarining doimiy chuqur monitoringini olib borish.

13. Bank mazkur siyosatning 12 bandining a) va v) xatboshilarida ko'rsatilgan tegishli tartibda tekshirish choralarini yuzasidan uchinchi taraflar tomonidan o'tkazilgan mijozni tegishli tartibda tekshirish natijalariga ishonishi mumkin. Ushbu hollarda mijozni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan yakuniy javobgarlik bank zimmasida qoladi. Bunda bank quyidagilarga ishonch xosil qilishi lozim:

mijozni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan zarur ma'lumotlarni zudlik bilan olish imkoniga (elektron tizimlar orqali);

mijozni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan identifikasiyalash ma'lumotlar va boshqa tegishli hujjatlarni so'rovnomasida zudlik bilan olish imkoniga;

uchinchi taraflar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish ichki qoidalariga amal qilishga.

Mazkur bandning ikkinchi, to'rtinchi xatboshilarda ko'rsatilgan talablardan biriga rioya qilinmagan taqdirda bank mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan mustaqil ravishda choralar ko'radi.

Tijorat banklari mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan choralar ko'rishi mumkinligini shartnomada va (yoki) oferta shartnomasida belgilab qo'yishi lozim.

14. Mijozni va operasiyaning boshqa ishtirokchilarini identifikasiyalash imkonini beruvchi barcha hujjatlar ularni taqdim etish sanasiga haqiqiy bo'lishi lozim. Xorijiy tilda (to'liq yoki qisman) tuzilgan hujjatlar o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat yoki rus tiliga tarjima qilingan, zarur hollarda legallashtirilgan holda bankka taqdim etilishi lozim.

15. Olingan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligida shubha uyg'onganda bank ushbu ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligini tekshirish yuzasidan choralar ko'rishi lozim. Bunday holda bank mijozlar haqidagi ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги (to'g'riligi)ni aniqlash uchun tegishli tashkilotlarga so'rovlar bilan murojaat qilishga haqlidir. Shuningdek

bank taqdim etilgan hujjatlar nusxalarining haqiqiyliги haqida shubha uyg'onganda, usbu hujjatlarning asl nusxalarini talab qilib olishga haqlidir.

16. Bank quyidagi hollarda mijozlarga pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operasialarni o'tkazishni rad etishga haqlidir:

yuridik shaxs yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz ish yuritish huquqiga ega shaxsning o'z joyida (pochta manzilida) bo'lmaganida;

qonunchilikka muvofiq so'rab olinadigan hujjatlarni bila turib noto'gri taqdim etish yoki taqdim etmaslik;

qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

17. Bankka quyidagilar ma'n etiladi:

no'malum egalariga, ya'ni bank hisobvarag'i (omonat) ochuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan uni identifikasialash uchun kerakli bo'lgan hujjatlar taqdim etilmasdan turib hisobvarag'lar (omonatlar) ochish;

hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yaqqol o'ydirma nomlarga hisobvarag'lar ochish;

hisobvarag' ochuvchi shaxsning yoki uning muxtor vakilining ishtirokisiz unga jhisobvarag'lar ochish, bank identifikasialash sanasiga haqiqiy hisoblangan va verifikasialangan avval taqdim etilgan hujjatlar asosida mijozni identifikasialash imkoniga ega bolgan, shuningdek mijozlarni tegishli tartibda tekshirish choralari ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yoki bank tomonidan biometrik ma'lumotlar asosida o'tkazilgan, shuningdek uchinchi taraf tomonidan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish natijalariga ishongan hollar bundan mustasno;

o'zlari ro'yxatdan o'tgan davlatlar hududida jismoniy holatda va ishlab turgan boshqaruv organlari mavjud bo'lmagan norezident-banklar bilan munosabatlarni o'rnatish va davom ettirish;

taqdim etuvchiga qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy asbolarni chiqarish;

mijozni identifikasialamasdan chet el valyutasida pul otkazmalarini, shu jumladan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali qabul qilish va jo'natish xizmatlarini ko'rsatish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish sohasida xalqaro hamkorlikda istirok etmaydigan davlatlar hududida sho'ba banklar, filial yoki vakolatxonalar tuzish.

18. Mijozlarni tegishli tartibda tekshirishni amalga oshirish imkoni bo'lmaganda bank MVDOga bu haqdagi xabarni jo'natish masalasini ko'rib chiqishi va bunday mijoz bilan ish munosabatlarni o'rnatish yoki uning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operasialarni o'tkazishdan voz kechishi yoki u bilan har qanday ish munosabatlarni to'xtatishi lozim.

#### **1- §. Jismoniy shaxslar**

19. Bank mijozning muvofiqligi to'g'risida etarlicha dalillarga ega bo'lishi lozim. Shaxsni hujjatli tekshirish faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat) yoki biometrik ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

20. Bank jismoniy shaxsni identifikasialash vaqtida uning to'liq familiyasi, ismi va sharifini, tug'ilgan sanasi va joyini, fuqaroligini, doimiy va (yoki) vaqtinchalik yashash joyini, pasport ma'lumotlari yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat raqamini, hujjat berilgan sanani, hujjat bergan organ nomini, soliq to'lovchining identifikasiya raqamini (agar bo'lsa) va telefon raqamini (uy, mobil – agar bo'lsa), shuningdek biometrik ma'lumotlarni aniqlashi lozim.

21. Mijoz to'g'risida ma'lumot uning shaxsni tasdiqlovchi identifikasion hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat) bilan tasdiqlanishi lozim.

Rasmiy hujjatda:

seriya va raqami, hujjat berilgan sana, hujjat bergan organ nomi, mijozning fotosi va uning shaxsini aniqlash maqsadida boshqa ma'lumotlar bo'lishi lozim;

identifikasion hujjatni amal qilish muddati hisobvarag' ochish va hisobvarag' bo'yicha operasialarni amalga oshirish vaqtiga haqiqiy bo'lishi lozim.

Hisobvarag' egasi yoki uning muxtor vakilining ishtirokisiz unga jhisobvarag'lar ochish va yopishga yo'l qo'yilmaydi.

Biometrik ma'lumotlar asosida usbu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi axborot tizimi bilan verifikasiya qilishi lozim.

22. Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat) asl nusxalarda taqdim etilishi va bank ulardan nusxa olib, ularni tegishli fayllarda saqlashi lozim.

## **2- §. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar**

23. Bank mijoz, uning tuzilishi, benefisiar mulkdori to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radi, shuningdek uning faoliyat sohasi va u yoki bu bank maxsulotlariga qiziqish sabablari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni yig'adi.

24. Bank yuridik shaxsga nisbatan firma nomini, joylashishi (pochta manzili)ni, shuningdek pul mamlag'lari va boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshirish vaqtiga yuridik shaxs nomidan ish yurituvchi jismoniy shaxsni identifikasiyalash to'g'risida ma'lumotlarni aniqlaydi. Yuridik shaxsni identifikasiyalash uning jhisobvarag ochish uchun taqdim etgan hujjatlari (shu jumladan yagona darchadan), shuningdek qonunchilikda talab etiladigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bank yuridik shaxslarga nisbatan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish choralari ko'rish vaqtida ularning davlat ro'yxatidan o'tganligi, rahbarlari to'g'risida ma'lumotlarni, shuningdek ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni olishi lozim.

25. Agar mijoz yoki benefisiar mulkdor sifatida o'z mol-nulkini tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni ochib berish to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilishi shart bo'lgan yuridik shaxs bo'lsa, u holda bunday yuridik shaxsning ta'sischilari (aksiyadorlari)ni shaxsini aniqlash talab etilmaydi.

26. Bank mijoz - yuridik shaxsni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida tegishli tartibda tekshirish jarayonida yakuniy hisobda mijozning egasi bo'lgan yoki uni nazorat qiladigan jismoniy shaxs - benefisiar mulkdorni identifikasiyalash yuzasidan barcha asoslangan va mumkin choralarni ko'rish lozim, shu jumladan mijoz mol-nulking tuzilishi va boshqarilishi, shuningdek mijoz ta'sischilari (jamiyat aksiyalarining kamida o'n foiziga ega aksiyadorlar, istirokchilar)ni o'rganish yo'li bilan.

Bank quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim;

mijozning ta'sischilari tarkibiga, mijozning nizom jamg'armasi (kapitali)ning 10% dan yuqori ulushiga ega bo'lgan shaxslarni aniqlashga;

mijozni boshqarish organlari tuzilishi va ularning vakolatlariga;

mijozning nizom jamg'armasi (kapitali)ning miqdoriga.

27. Ta'sischilari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar ularning davlat ro'yxatidan o'tish jarayonida bank hisobvarag'ini masofaviy ochish to'g'risida ariza bilan murojaat etgan taqdirda mazkur Siyosatning 26 bandida nazarda tutilgan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish choralari Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda - ro'yxatdan o'tkazish organi) tomonidan ko'rilishi mumkin va tijorat banklari ko'rilgan choralar natijalariga ishonch bildirishi mumkin. Bunda banklar quyidagilarga ishonch hosil qilishi lozim:

mijozni tegishli tartibda tekshirish choralari yuzasidan zarur ma'lumotlarni tadbirkorlik sub'yektlarining Davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimi orqali zudlik bilan olish imkoniga;

mijozni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan choralar korish bo'yicha qonunchilik hujjatlari, ro'yxatdan o'tkazish organi belgilagan talablarga rioya etishiga;

mazkur bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan talablarni bajarmagan holda tijorat banklari mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan mustaqil ravishda choralar ko'radi.

Mijozlarni tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazish organi tomonidan tekshirish yuzasidan choralar ko'rilganda mijoz bilan ish munosabatlarni o'rnatish haqidagi qaror banklar



tomonidan xatardan kelib chiqib mustaqil qabul qilinadi. Bunda bank hisobvarag'i shartnomasi ofertasida tijorat banklari mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan choralar ko'rilishi mumkinligi ko'rsatilishi lozim.

28. Yuridik shaxsni identifikatsiyalash vaqtida bank shuningdek yuridik shaxsning ijro organlarida ishlab, uning aktiv va passivlarini tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan, uning faoliyatini boshqaradigan shaxslar haqida ma'lumotlarni olishi zarur. Bunda yuridik shaxslarga nisbatan tashkilotning nomini, imzolar va muxr izi na'munalari kartochkasida ma'lumotlari turgan mansabdor shaxslarni Ro'yxat bilan tekshirish zarur.

29. Davlat hokiniyati va boshqaruvi organlariga nisbatan tegishli tartibda tekshirish yuzasidan choralar ko'rilish talab etilmaydi.

30. Yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar:

- a) jismoniy shaxsni identifikatsiyalash uchun ko'zda tutilgan ma'lumotlar;
- b) davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risida ma'lumotlar: sana, raqam, ro'yxatdan o'tkazish organi nomi;
- v) faoliyatini amalga oshirish joyi;
- g) davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar;
- d) faoliyat turlarini amalga oshirishi uchun mavjud guvohnoma va ruxsatnomalar to'g'risida ma'lumotlar: faoliyat turi, raqam, berilgan sana, kim tomondan berilgan, amal qilish muddati;
- e) telefon raqamlari.

### **3- §. Rasmiy mansabdor shaxslar**

31. Bank ichki nazorati tizimining asosiy vazifalaridan biri rasmiy mansabdor shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari amalga oshiradigan operatsiyalarni chuqur monitoringini o'tkazishdir.

32. Bank mijoz uori benefisiar mulkdor sifatida chiqayotgan rasmiy mansabdor shaxslarga nisbatan mazkur Siyosatda ko'rsatilgan mijozlarni tegishli tartibda tekshirish yuzasidan choralar ko'rilishdan tashqari quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

rasmiy mansabdor shaxsning maqomi to'g'risida ma'lumotlarni tekshirish hamda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni manbasini aniqlash yuzasidan oqil choralar ko'rilish;

faqat boshqaruv Raisining yoki uning vakolatli o'rinbosarining ruxsatiga ko'ra rasmiy mansabdor shaxs bilan ish munosabatlarini o'rnatish;

ish munosabatlarini doimiy chuqur monitoringdan o'tkazish.

33. Rasmiy mansabdor shaxslar va ularning oila a'zolari ham yuqori xatar toifasiga kiradi va bank ularga kuchli e'tibor qaratishi lozim.

### **4- §. Jamiyatlar va xayriya muassasalari**

34. Agar jamiyatlar yoki xayriya muassasalariga hisobvarag'lar ochilsa bank mazkur tashkilotlarni tuzish maqsadlari qonuniyligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bank mazkur tashkilotlarni barcha yuridik hujjatlari (shu j.yagona darchadan), benefisiar mulkdor va hisobvarag'larni tasarruf etishga vakolatli shaxslar to'g'risida shaxsiy ma'lumotlarni olishi lozim.

Bu ma'lumotlar kompaniya tuzilishi va vakolatli shaxslar o'zgarishiga qarab muntazam yangilanib borishi lozim.

### **5- §. Kredit tashkilotlar**

35. Kredit tashkilotlar bilan ish munosabatlarini o'rnatishda, usbu munosabatlar darajasidan qat'iy nazar identifikatsiyalash maqsadida ta'sis hujjatlari, davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risida va ish munosabatlarini o'rnatish uchun taqdim etilgan boshqa (shu j. yagona darchadan) hujjatlarni olish va o'rganish lozim. Bundan tashqari, kredit tashkiloti

tomonidan pullarni yuvish hamda terrorizmni moliyalashtirish ga qarshi ta'sir etish yuzasidan qanday choralar ko'rilayotganini aniqlash lozim.

36. Norezident-bank bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishda mazkur tashkilotni identifikasiyalashdan tashqari, bank:

norezident-bank ish faoliyati xususiyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun uning to'g'risida ma'lumotlar yig'adi;

ochiq ma'lumot asosida obro'si va nazorat sufatini aniqlaydi, shu jumladan ushbu bankka nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yuzasidan surishtiruvlar o'tkazilganligi haqida

«tranzit hisobvarag'lar»ga nisbatan vakil-bank vakil hisobvarag'lariga to'g'ri kira oladigan mijozlarni shahsini aniqlagani va tekshirgani haqida hamda u vakil-bank so'roviga ko'ra zarur identifikasiyalash ma'lumotlarini taqdim etish imkoniga ega ekanligi to'g'risida qoniqarli tasdiq olishi lozim;

tranzit o'tkazmalarni amalga oshirish maqsadida boshqa banklar bilan munosabatlarini o'rnatishda elektron o'tkazma to'g'risida butun ma'lumotlarni saqlab qoladi.

Norezident-bank bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida qaror bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

37 Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish sohasida xalqaro hamkorlikda istirok etmaydigan davlatlar hududida joylashgan norezident-banklari yoki ularning sho'ba banklar, filial yoki vakolatxonalar bilan vakillik munosabatlarini davom ettirishda alohida e'tiborli bo'lishi lozim.

Bank vakillik munosabatlari o'rnatilgannorezident-banklar tomonidan operasiyalarga xalqaro tekshiruv standartlarini qo'llashi va tegishli tekshiruv amaliyotlarni ishlatishiga ishonch hosil qilishi lozim.

38. O'zlari ro'yxatdan o'tgan davlatlar hududida doimiy ishlab turgan boshqaruv organlari mavjud bo'lmagan banklar tomonidan hisobvarag'lari ishlatilayotgani haqida ma'lumotlar mavjud norezident-banklar bilan munosabatlarni o'rnatishni oldini olish choralari ko'rishi zarur.

39 Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda bank norezident-banklarga to'lov mazmuni va yuqoridagi hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq bosqa ma'lumotlarni uzatishi mumkin

40. Norezident-bank tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi ta'sir etish yuzasidan xalqaro standartlar talablarini buzgani haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bank Boshqaruvi mazkur vakil-bank bilan hamkorlikni to'htatishgacha bo'lgan tegishli choralarni qo'llashi masalasini ko'rishi lozim.

## **6- §. Xalqaro pul o'tkazmalari**

41. Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan munosabatlarini o'rnatish va amalga oshirishda mazkur tashkilotni identifikasiyalashdan tashqari, bank:

xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha hamkorning ish faoliyati xususiyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun uning to'g'risida ma'lumotlar yig'adi;

ochiq ma'lumot asosida obro'siini aniqlaydi, shu jumladan ushbu bankka nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yuzasidan surishtiruvlar o'tkazilganligi haqida;

elektron o'tkazma to'g'risida butun ma'lumotlarni saqlab qoladi.

42. Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilan munosabatlarni o'rnatish to'g'risida qaror bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

43. Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarni, shu jumladan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali amalga oshirishda bank:

mijozlar-jismoniy shaxslarni tegishli tartibda tekshirgandan so'ng xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishi lozim;

jo'natilayotgan pul o'tkazmalarini jo'natuvchi-mijoz to'grisida aniq ma'lumotlar qo'shib yuborilishini ta'minlash lozim;

milliy qonunchilik va bankning lokal hujjatlari talablariga muvofiq ijrochi banklar va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan pul o'tkazmalari tomonidan jo'natuvchi to'grisida minimal ma'lumotlarni taqdim etilishini talab qilish;

ATB "Kapitalbank" Bosqaruvi tomonidan tasdiqlangan ATB "Kapitalbank"da oluvchi va (yiki) jo'natuvchi haqida talab etiladigan ma'lumotlar mavjud bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari hollari aniqlanganda cyoralar ko'rish Tartibi asosida va xalqaro pul o'tkazmalarini aniqlash yuzasidan asosli va mumkin choralarni ko'rishi lozim;

jo'natuvchi haqida ma'lumotlar (jismoniy shaxslarni fmiliyasi, ismi, sharifi, yuridik shaxslarning to'liq nomi, jo'natuvchining vanzili va hisobvarag' raqami) taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarga alohida e'tiborli bo'lishi va chuqur tahlil qilishi lozim.

44. Bank norezident-banklar va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan ular bilan tuzilgan shartnomalarga asosan 3 (uch) bank kuni ichida pul mablag'larini jo'natuvchi haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'lishi lozim.

45. Agar bunday imkon bo'lmasa bank Bosqaruvi qaroriga ko'ra tomonidan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilantuzilgan shartnomalarni bekor qilish masalasini ko'rib chiqish lozim.

46. Agar bank to'lov o'tkazmasida vositachi (tranzit bank) sifatida qatnasha, u quyidagilarni bajarishi lozim:

elektron o'tkazmaga hamroh oluvchi va jo'natuvchi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'tkazm abilan birga kamida besh yil uzatish va saqlashni ta'minlash;

talab etiladigan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalarini aniqlash boyicha asosli va mumkin choralarni ko'rishi;

oluvchi va (yiki) jo'natuvchi haqida talab etiladigan ma'lumotlar mavjud bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari hollari aniqlanganda Departamentga habar jo'natish haqida masalani kurib chiqish.

## **7- §. Valyuta operatsiyalari.**

47. Bank, avtomatlashtirilgan bank tizimida xorij valyutasi oldi-sotdi operatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun bankni "valyuta almashtirish shoxobchalarining yagona tizimi" Dasturiy majmuasi bilan ta'minlanishida Markaziy Bank bilan xamkorlik qiladi.

48. Bank, jismoniy shaxslar tomonidan xalqaro to'lov kartalaridan (konversion kartalar) naqd xorijiy valyutani yechib olish uchun bankomatlar o'rnatadi, shuningdek, xorijiy valyuta ko'rinishidagi omonatlarni ochish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadi.

## **8-§. Mijozlarga bank xizmatlarini taqdim etish.**

49. Bank, mijozlarga Bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar to'g'risida to'liq ma'lumot beradi, shu jumladan ushbu ma'lumotlarni bankning veb-saytiga va Bank filiallaridagi axborot stendlariga joylashtirish orqali.

50. Bank, o'z veb-saytida bank xizmatlari va maxsulotlari, bank xizmatlarining ayrim turlarini olish mexanizmlari to'g'risida, shuningdek moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ma'lumotlarni ma'ruzalar xamda videoroliklar shaklida o'quv dasturlarini joylashtiradi.

51. Bank xizmatlari uchun zarur tarqatma xujjatlarni (tariflar, varaqalar, bukletlar) ishlab chiqadi va tayyorlaydi.

#### **9-§. Yangi texnologiyalar.**

52. Bank, masofaviy bank xizmatlarini (internet-banking, mobil banking) taqdim etish uchun dasturlarni ishlab chiqmoqda.

53. Mijozlarning to'lov xujjatlarini qabul qilish va ularga ishlov berish, shuningdek to'lovlarni xamda mijozlarning hisob varaqlari xolatini masofadan turib 24 soat mobaynida monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish.

54. Bank, jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarning tarqalishini moliyalashtirish uchun texnologik yutuqlarning suiste'mol qilinishining oldini olish choralari ko'rishi kerak. Ushbu maqsadlar uchun bank quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkallik (xatar) darajasini aniqlashi va baholashi kerak, ya'ni:

yangi xizmat turlari va yangi ishbilarmonlik tajribasini ishlab chiqish bilan;

yangi yoki mavjud bo'lgan xizmat turlarida, yangi yoki rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish bilan.

55. Tavakkallik (xatar)ni bunday baholash yangi xizmat turlarini, ishbilarmonlik tajribasini yoki yangi rivojlanayotgan texnologiyalarni ishga tushirishdan avval amalga oshirilishi kerak. Bunda ushbu tavakkalikni aniqlash va baholashni yangi xizmat turlari(yangi texnologiyalar)ni tadbiq etayotgan bank bo'linmasi xamda Bank ichki nazorati Departamenti bilan birgalikda amalga oshirishi kerak.

Bankning ushbu bo'limi va Ichki nazorat Departamenti ushbu tavakkalik (xatar)ni nazorat qilish va kamaytirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rishi kerak.

Ko'rilgan choralar bo'yicha natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar Bank Boshqaruviga taqdim etilishi kerak.

#### **10-§. Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash.**

56. Bank, tegishli ravishda sinash va mijozni identifikatsiyalash natijasida olingan mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri yangilash bo'yicha choralarni ko'radi. Bank, mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni xaqqoniyligini ta'minlab turish uchun o'z mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kamida 3 yilda bir marta yangilaydi. Tavakkalik(xatar) darajasi yuqori bo'lgan mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va yangilash kamida 1 yilda bir marta yangilab boriladi. Bundan tashqari, mijoz tomonidan muxim xarakterlar (masalan, bank xizmatlaridan foydalanishni qayta tiklash yangi hisob varaq ochish), shuningdek mijozning Boshqaruv organlaridagi o'zgarishlar, egalari tarkibi va x.k. amalga oshirilganida mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar yangilanishi mumkin.

### **6-BOB. MIJOZLAR FAOLIYATINING MONITORINGI VA OPERATSIYALARI TAHLILI.**

57. Mijozlar faoliyati monitoringi amaliyotining asosiy bosqichlari quyidagilar: qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan mijozlarning operatsiyalari va faoliyatini aniqlash; bankning mas'ul xodimi tomonidan bunday operatsiyalar to'g'risidagi xisobotlarni tahlil qilish;

o'tkazilgan tahlil natijalari bo'yicha mijozlar faoliyatini o'rganishni davom ettirish to'g'risidagi tegishli qarorlarni qabul qilish.

58. Bunda quyidagi o'lchamlarga alohida e'tibor beriladi:  
hisob raqam foydalanuvchisi;

hisob varaqdan o'tgan operatsiyalar xajmi va soni;  
mablag' manbalari;  
mablag' qo'yilgan yoki olingan (naqd pul, cheklar va boshqalar) shakli;  
tranzaksiyani amalga oshiruvchi shaxsning aniqligi;  
mablag'larni yo'naltirilish joyi;  
tranzaksiya maqsadlari guvohnomasi;  
bank xodimlari bilan mijozning aloqasi;  
mijozning faoliyati to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar.

59. Bank mas'ul xodimining fikriga ko'ra, agar biron-bir dalil aniqlansa, mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyaning legalligi shubha uyg'otsa, ushbu operatsiya mablag'ni naqd pulga aylantirish kabi maqsadlarda qilinayotganligiga unda fikr tug'ilsa, u holda bank xodimi tegishli yozuvlarni amalga oshirib bu xaqda bank Boshqaruvini ogohlantiradi.

## **7-BOB. TAVAKKALCHILIK (XATAR) DARAJASINI BAHOLASH**

60. Tavakkalchilik darajasini aniqlash, baholash va kamaytirish uchun bank o'rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, nazorat qilish, boshqarish, xujjatlashtirish va xatar darajasini pasaytirish choralarini ko'rishi kerak.

Bank o'z faoliyatida yiliga kamida bir marta muntazam ravishda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini moliyalashtirish, xatarni o'rganish, tahlil qilish, aniqlash va o'rganish natijalarini xujjatlashtirish majburiyatini oladi.

Bank, tavakkalchilikning umumiy darajasini, xatarni kamaytirishning zaruriy darajasini aniqlashi xatarning turlari va darajalariga qarab, tegishli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishi kerak.

Qo'llanilayotgan choralar aniqlangan xatarni kengaytirilgan yoki soddalashtirilgan nazorat qilishga va resurslarni samarali taqsimlash bo'yicha imkoniyatlar yaratib berishi kerak.

Xatar darajasi, bank bo'limi tomonidan tayinlangan xodimning mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlari asosida, mijoz tomonidan amalga oshirilgan faoliyat turlariva operatsiyalarini, bankning ichki qoidalarida belgilangan mezonlarni, mijozni sinchiklab tekshirish natijalarini, xatar omillarini (mijozlarning turi va faoliyati, bank mablag'lari va xizmatlari, yetkazib berish yo'nalishlari, geografik joylashuvi va boshqalar bo'yicha) xisobga olgan xolda aniqlanadi va baholanadi, shu jumladan, mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni o'rganish va tahlil qilish asosida. O'rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, nazorat qilish, xujjatlashtirish va xatar darajasini pasaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tartibi ichki qoidalar bilan belgilanadi.

61. Bank va uning xodimlarini noqonuniy faoliyatga, shuningdek jinoiy faoliyat orqali olingan mablag'ni legallashtirish xamda xalqaro terrorizm va ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirishga jalb qilinishi xatarini pasaytirish maqsadida bank xatarni baholash mezonlarini belgilaydi.

62. Mijozning zaruriy tekshiruvi jarayonida olingan ma'lumotlarga asoslanib, bank mijozining faoliyati va operatsiyalar turlarini hisobga olgan xolda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijoz uchun tegishli (past yoki yuqori) xatar darajasini baholaydi va tayinlaydi.

63. Xatarni aniqlash va baholashda bank asosiy baholash yo'nalishi quyidagilar ekanligini e'tiborga olgan xolda mezonlarni aniqlaydi va foydalanadi :

mijozlar bazasi;

bank tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar;

bank faoliyatining geografik mintaqalari.

64. Bank xatarni pasaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni qo'llaydi :

mijozlarni tegishli tartibda tekshirish;

mijozlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash;

mijozlarning faoliyati yo'nalishini monitoringi va operatsiyalari tahlili.

65. Agar mijoz yoki u tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya yuqori xatarli toifaga kiritilgan bo'lsa, bank ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarni doimiy ravishda kuzatib borishi kerak.

66. Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning ko'rinishi o'zgarganda bank zarur bo'lganda u bilan ishlash xatarini qayta ko'rib chiqishi zarur. Bank barcha murakkab, g'ayrioddiy yirik operatsiyalarga, shuningdek aniq iqtisodiy yoki ko'rinib turgan qonuniy maqsadi bo'lmagan barcha operatsiyalar sxemalariga katta e'tibor qaratishi kerak.

Xatarni baholash natijalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga taqdim etilishi kerak.

### **8-BOB. XABARLARNI MVDTga YUBORISH.**

67. Mijozlarni ishlashi shubxali deb tan olinganidan so'ng bankning mas'ul xodimi bankning mijoziga nisbatan keyingi xarakatlari to'g'risida qaror qabul qiladi, shu jumladan:

shubxali operatsiyalar to'g'risida xabarlarni Maxsus Vakolatli Davlat Tashkiloti (MVDT)ga taqdim etish to'g'risida;

mijozlar bilan bevosita ish olib boruvchi bank(filial) va bo'limlarning rahbarlarini operatsiyani shubxali deb topish to'g'risida xabardor qilish to'g'risida;

mijoz to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish to'g'risida;

mijoz bilan ishlash xatarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida;

ushbu mijoz bilan operatsiyalarga aloxida e'tibor qaratish zarurligi to'g'risida.

68. Bankning mas'ul xodimi bank (filial) rahbariyatiga mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni Qonunchilik va mijoz bilan tuzilgan shartnomaga asosan to'xtatish to'g'risidagi taklifni berish xuquqiga ega.

69. Mijozning shubxali deb topilgan operatsiyasi to'g'risida xabarni bank MVDTga shubxali operatsiya aniqlangan kunning ertasiga faqat bir ish kunidan kechiktirmay yuborishi kerak.

70. MVDTga xabar faqat bankning bosh ofisi tomonidan yuboriladi.

### **9-bob. Nazorat natijalari bo'yicha ma'lumotni va xisobotni saqlash**

71. Bank quyidagilarni saqlashga majbur:

Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar va hujjatlar;

operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan MVDTga yuborilgan ma'lumot;

mas'ul xodimning xisoboti;

xodimlarni o'qitish to'g'risidagi ma'lumot.

72. Bo'lim (mas'ul xodim) faoliyatida foydalaniladigan xujjatlarga (Markaziy bank va MVDT bilan yozishmalar, shu jumladan MVDTga yuborilgan xabarlarning qog'oz va elektron

nusxalari mijozlarning qog'oz va elektron anketalari, jurnallar va boshqalar) o'zgalarning qo'l tekizishini cheklash maqsadida hujjatlar va ularning xatlov ro'yxati ichki nazorat bo'limi (mas'ul xodimi) tomonidan maxsus jixozlangan binolarda yoki yong'inga qarshi materialdan tayyorlangan maxsus muxrlangan seyflarda Qonunchilikda belgilangan lekin mijoz bilan aloqalar to'xtatilganidan keyin eng kamida 5 yilgacha saqlanishi kerak.

73. Hujjatlarning elektron ko'rinishi dasturiy ravishda arxivlanishi, elektron vositalarda saqlanishi va departament direktori tomonidan ro'yxat bilan birga yong'inga qarshi materialdan tayyorlangan maxsus muxrlangan seyflarda saqlanishi kerak.

Saqlash muddati tugaganidan so'ng xujjatlar belgilangan tartibda bank arxiviga topshiriladi.

74. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishini moliyalashtirish bilan bog'liq xatarni baholash xamda olingan daromadni legallashtirishni oldini olish maqsadida mas'ul xodim xar chorakda ichki nazorat qoidalarini bajarish natijalari bo'yicha Boshqaruv raisiga xisobot taqdim etadi.

#### **10-BOB. BANK XODIMLARINI JINOIY FAOLIYAT VA TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI XARAKATLARNI AMALGA OSHIRISH MASALASI BO'YICHA O'QITISH TARTIBI.**

75. Bank, "Kapital bank" Boshqaruvi tomonidan bank xodimlarini **jinoiy faoliyat ,terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi xarakatlarni amalga oshirish masalasi bo'yicha tasdiqlangan ish reja asosida quyidagi yo'nalishlarda o'qitishni tashkil etadi :**

a) Bank xodimlarini jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish soxasidagi normativ xujjatlar bilan tanishtirish;

6) bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan jinoiy faoliyat bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida bank xodimlarini ichki nazorat qoidalari bilan tanishtirish;

v) jinoiy faoliyat bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishi to'g'risida bankka ma'lumot berish.

76. O'quv dasturlari bankning jinoiy faoliyat bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish faoliyatining muvoffaqiyatli olib borilishida bank xodimlarining xar birini o'z vakolatlari doirasidagi faol ishtiroki asosiga qurilganligida.

77. Bank xodimlarini ushbu soxada o'qitishdan maqsad jinoiy faoliyat bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablarini, shuningdek Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan qoidalarini va bankning ichki normativ qoidalarini bajarishdan iborat.

78. Tartibning bajarilishi bankda xar yarim yillik uchun texnik o'quv rejasini qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Rejada texnik tadqiqotlar uchun mavzular ro'yxati, mashg'ulotlar o'tkazilish sanasi va unga mas'ul bo'lgan xodimlarning nomi ko'rsatiladi. Reja bank boshqaruvi raisi tomonidan joriy yilning 15-yanvar va 15-iyulidan kechiktirmay tasdiqlanadi. Zarur bo'lgan xollarda Rejaga bank Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

79. Bank xodimlari, ularning ish faoliyatlari xisobga olingan xolda o'qitiladi. Mijozlarni jalb etish, ular bilan hisob-kitobni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan xodimlar o'z xizmat

vazifalari asosida o'qitiladi. O'quv dasturlari: mijozni tekshirish tartibini qo'llash, mijoz to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish va uning faoliyatini nazoratga olish zarurligini tushuntirishni o'z ichiga oladi.

80. Bank xodimlari uchun jinoiy faoliyat bilan topilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha o'qishlar bank ichida boshqa ishga o'tsa ham va xizmat vazifasi o'zgarsa ham o'tiladi.

## 11-BOB. MAXFIYLIKNI TA'MINLASH.

81. Bank jinoiy faoliyat ,terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq xujjatlar bilan o'zgalarning tanishishlarini cheklaydi, ularning tarqatilmashligini ta'minlaydi, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan shubxali operatsiyalarni MVDTga yuborilganligi to'g'risida xabarni taqdim etmaydi.

82. Bank o'z xodimlari tomonidan ichki nazorat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma'lumotlarni oshkor etmaslikni (shaxsiy maqsadlar uchun yoki uchinchi tomon manfaatlarini ko'zlab ilatishni) ta'minlaydi.

83. Mijoz to'g'risidagi axborot, identifikatsiya ma'lumotlarini tashkil etadigan so'rovnomalarni uchinchi shaxsga yetkazishni qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

84. Ushbu ichki Siyosat "Kapitalbank" ATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

### Kiritildi:

Ichki nazorat Departamenti Direktori

K.A.Xasanov

### Kelishildi:

Boshqaruv Raisi

O.R.Kim

Boshqaruv Raisi muovini

B.S.Raxmatov

Boshqaruv Raisi muovini

K.V.Tyan

Boshqaruv Raisi muovini

A.P.Glumiyenko

Boshqaruv Raisi muovini

S.A.Gimadiyev

Bosh xisobchi

D.N.Allayorova

Xatarlarni boshqarish  
Departamenti direktori

T.V.Kan

Yuridik xizmat  
Departamenti Direktori

V.V.Pachurin

Ichki audit Departamenti  
Direktori v.b.

J.S.Yuldashev



Перевод выполнен переводчиком **Усмановым Маратом Ринатовичем**.

Владелец паспорта серии АА № 3139692, выданного 14.10.2013 г. УВД Чиланзарского района, города Ташкента. Переводчик не несет ответственности за содержание прилагаемого оригинала документа.

Об ответственности за ложный перевод предупрежден.

*Усманов Марат Ринатович*

---

Таржима таржимон Усманов Марат Ринатович томонидан амалга оширилди.

Паспорт: АА № 3139692, 14.10.2013 йилда Тошкент шаҳар, Чиланзар тумани ИИБ томонидан берилган. Таржимон ҳужжатда келтирилган маълумотларнинг ҳақиқийлиги учун жавобгарликни ўз бўйнига олмайди.

Ёлгон таржима учун жавобгарлик ҳақида огоҳлантирилган.

банк»

да

нка

М.А.

В,  
Г,

Я

На основании статьи 67 Закона Республики Узбекистан «О нотариате», нотариус, свидетельствуя подлинность подписи, не удостоверяет факты, изложенные в документе, а лишь подтверждает, что подпись сделана определенным лицом.

Республика Узбекистан.

Город Ташкент.

«29» Января две тысячи двадцатого года.

Я, **ЭРГАШЕВ ВАЛИШЕР АЛИШЕРОВИЧ**, нотариус государственной нотариальной конторы № 1 Чиланзарского района, города Ташкента, свидетельствую подлинность подписи известного мне переводчика **УСМАНОВА МАРАТА РИНАТОВИЧА**. Личность подписавшего документ установлена, дееспособность проверена, т.е. при личном общении с ним, его дееспособность сомнений не вызвала.

Зарегистрировано в электронном реестре за № 20200010800 0836

Взыскано государственной пошлины 44 600с. 00 т.



НОТАРИУС

*Валишер Алишерович*

ЭРГАШЕВ В.А.

Гербовая печать:

Министерство Юстиции Республики Узбекистан  
Управление юстиции города Ташкента  
Государственная нотариальная контора № 1  
Чиланзарского района  
НОТАРИУС  
В.А. ЭРГАШЕВ



Ўзбекистон Республикаси “Нотариат тўғрисида”ги Қонунининг 67 – моддасига асосан, нотариус имзонинг ҳақиқийлигини тасдиқлаётиб, ҳужжатда келтирилган маълумотларнинг ҳақиқийлигини эмас, балки фақатгина имзонинг маълум шахс томонидан қўйилганлигини шаҳодатлайди.

Ўзбекистон Республикаси.

Тошкент шаҳри.

«29» Январ икки минг йигирманчи йил.

Мен, **ЭРГАШЕВ ВАЛИШЕР АЛИШЕРОВИЧ**, Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани 1-сонли Давлат нотариал идораси нотариуси, менга таниш бўлган таржимон **УСМАНОВ МАРАТ РИНАТОВИЧ**нинг имзоси ҳақиқийлигини тасдиқлайман. Ҳужжатга имзо чекувчининг шахси аниқланди, муомалага лаёқатлилиги текширилди, шахсий мулоқот пайтида унинг муомалага лаёқатлилиги шубҳа туғдирмади.

Электрон реестрига № 20200010800 0836 сон билан қайд қилинди.

44 600 с. 00 т. миқдорида Давлат божи ундирилди.

НОТАРИУС

ЭРГАШЕВ В.А.